Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	



HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich

Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi

ORCID: [0009-0009-5112-5579](https://orcid.org/0009-0009-5112-5579)

Annotatsiya. Maqolada hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish zarurati iqtisodiy o'sishning sifati, hududlararo tafovutlarni qisqartirish, axususiylar sektor ulushini oshirish hamda "yashil iqtisodiyotga o'tish" sharoitida kapital oqimlarini barqaror jalb qilish nuqtayi nazaridan asoslanadi. Tadqiqot investitsiya muhitini baholash bo'yicha xalqaro konseptual yondashuvlar, jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining investitsion siyosat mezonlari, BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasining barqaror rivojlanish uchun investitsiya siyosati asoslari hamda O'zbekiston Respublikasining investitsiya-huquqiy bazasi va amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstini integratsiyalagan holda hududlar kesimida differensial va natijaga yo'naltirilgan siyosat mexanizmlarini shakllantirish modelini taklif etadi. Maqolada investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya rag'batlarini maqsadli yo'naltirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, investorlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish, "yagona xizmat ko'rsatish markazi" faoliyatini rivojlantirish, davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirish, yashil investitsiyalarni faollashtirish, inson kapitali hamda innovatsion ekotizimni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: hududiy investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, investitsiya rag'batlari, institutsional islohotlar, infratuzilma, yashil investitsiyalar, investorlarni qo'llab-quvvatlash.

Abstract. The article substantiates the necessity of improving regional investment policy from the perspective of enhancing the quality of economic growth, reducing interregional disparities, increasing the share of the private sector, and ensuring the sustainable attraction of capital flows in the context of the transition to a green economy. The study integrates international conceptual approaches to the assessment of the investment climate, including the investment policy criteria of the Organisation for Economic Co-operation and Development and the investment policy framework for sustainable development of the United Nations Conference on Trade and Development, together with the investment and legal framework of the Republic of Uzbekistan and the context of ongoing reforms. On this basis, the article proposes a model for the formation of differentiated and results-oriented mechanisms of regional investment policy. Priority directions include improving the investment climate, targeting investment incentives, modernizing infrastructure, strengthening investor service systems and the "one-stop shop" mechanism, reducing state participation and accelerating privatization processes, activating green investments, and developing human capital and the innovation ecosystem.

Keywords: regional investment policy, investment climate, investment incentives, institutional reforms, infrastructure, green investments, investor support.

Аннотация. В статье обосновывается необходимость совершенствования региональной инвестиционной политики с позиций повышения качества экономического роста, сокращения межрегиональных диспропорций, увеличения доли частного сектора, а также устойчивого привлечения капитальных потоков в условиях перехода к «зелёной экономике». В исследовании интегрированы международные концептуальные подходы к оценке



инвестиционного климата, в том числе критерии инвестиционной политики Организации экономического сотрудничества и развития, основы инвестиционной политики для устойчивого развития Конференции ООН по торговле и развитию, а также инвестиционно-правовая база Республики Узбекистан и контекст реализуемых реформ. На этой основе предлагается модель формирования дифференцированных и ориентированных на результат механизмов региональной инвестиционной политики. В статье в качестве приоритетных направлений обоснованы меры по улучшению инвестиционного климата, целевой ориентации инвестиционных стимулов, модернизации инфраструктуры, усилению системы работы с инвесторами и развитию деятельности «единого окна», сокращению государственного участия и ускорению процессов приватизации, активизации зелёных инвестиций, развитию человеческого капитала и инновационной экосистемы.

Ключевые слова: региональная инвестиционная политика, инвестиционный климат, инвестиционные стимулы, институциональные реформы, инфраструктура, зелёные инвестиции, поддержка инвесторов.

KIRISH

Hududiy rivojlanishning zamonaviy modelida investitsiya siyosati “kapitalni jalb qilish”dan tashqari, “qaysi hududga”, “qaysi tarmoqqa” va “qanday shartlar bilan” investitsiya kirishini boshqaradigan strategik boshqaruv instrumentiga aylanmoqda. Global investitsiya oqimlarining beqarorligi, geosiyosiy parchalanganlik, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda “yashil transformatsiya” talablari investorlardan ham, davlatlardan ham barqarorroq, prognozliroq va shaffofroq muhitni talab qilmoqda [1]. Shu sababli hududlar kesimida investitsion siyosatni takomillashtirish masalasi faqat “raqobat” bilan cheklanmay, balki barqaror o’sish va sifatli bandlik masalalari bilan ham bevosita bog’liqdir.

O’zbekiston misolida iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlarida investitsiya siyosati uchta yirik vazifani bir vaqtda hal qilishi lozim:

1. hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish;
2. xususiy sektorni o’sish drayveriga aylantirish;
3. yashil va innovatsion yo’nalishlar bo’yicha kapital oqimini ko’paytirish.

Ushbu vazifalar alohida-alohida emas, balki bir-birini kuchaytiruvchi tizim sifatida namoyon bo’ladi: infratuzilma va institutlar yaxshilansa, investitsiya oqimi oshadi; investitsiya oqimi oshsa, bandlik va daromadlar ko’payadi; yashil va innovatsion investitsiyalar hajmi kengaysa, uzoq muddatli raqobatbardoshlik mustahkamlanadi [2].

Biroq hududlar kesimida investitsiya siyosatini “bir xil paket” asosida yuritish ko’pincha kutilgan samarani bermaydi. Yuqori salohiyatga ega hududlar investitsiyalarni tobora ko’proq jalb etayotgan bir paytda, past salohiyatli hududlar rivojlanishdan ortda qolmoqda. Xalqaro tajriba va konseptual yondashuvlar shuni ko’rsatadiki, investitsiya siyosatida hal qiluvchi omil imtiyozlar soni yoki reklama emas, balki institutsional sifat, infratuzilma xarajatlarning samaradorligi, tartib-taomillarning prognoz qilinishi hamda investor xizmatlarining amalda samarali ishlashidir [3].

Mazkur maqolaning maqsadi hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish zaruratini nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda ustuvor yo’nalishlar bo’yicha integratsiyalashgan tavsiyalar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob izlanadi:

- a) hududiy investitsiya siyosati nima uchun differensial bo’lishi shart;
- b) investitsiya rag’batlari va institutsional mexanizmlar o’rtasidagi optimal nisbat qanday;
- c) yashil investitsiyalar hududiy siyosatga qaysi mexanizmlar orqali integratsiya qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda hududiy investitsiya siyosati iqtisodiy o’sishni jadallashtirish bilan bir qatorda hududlararo tafovutlarni qisqartirish va xususiy sektor faolligini oshirishning muhim instrumenti sifatida talqin qilinadi [1][2]. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, investitsiya oqimlari tabiiy ravishda yuqori salohiyatga ega hududlarda jamlanadi va bu jarayon davlat tomonidan muvofiqlashtirilmasa, past rivojlangan hududlarda bandlik va daromadlar o’sishi cheklanib qoladi [3].

Xalqaro yondashuvlarda hududiy investitsiya siyosatining samaradorligi imtiyozlar soni bilan emas, balki institutsional muhit sifati, infratuzilma ta’minoti va tartibga solishning prognoz qilinishi bilan izohlanadi [3][8]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti investitsion siyosat mezonlari investitsiya muhitini kompleks baholashni taklif etib, raqobat siyosati, soliq ma’murchiligi, moliya bozorlariga kirish va davlat boshqaruvi sifati kabi omillarni asosiy determinantlar sifatida belgilaydi [3][6]. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish uchun investitsiya siyosati asoslarida investitsiya siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlar bilan uyg’unlashishi lozimligi ta’kidlanadi [5]. So’nggi Jahon investitsiya

hisobotlarida investitsiyalarni soddalashtirish, raqamlashtirish va “yagona oyna” mexanizmlarini joriy etish global trendga aylangani hamda yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish siyosatining ajralmas qismiga aylangani qayd etilgan [7]. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro valyuta fondi tadqiqotlariga ko‘ra, investorlar qaror qabul qilishida eng muhim omillar sifatida infratuzilma sifati, davlat ishtirokining darajasi, raqobat muhiti va ma‘murchilik xarajatlari ko‘rsatiladi [8][9][10]. O‘zbekiston bo‘yicha olib borilgan tahlillar esa investitsiya siyosatining huquqiy asoslari shakllangan bo‘lsa-da, hududlar kesimida institutsional ijro sifati va investor xizmatlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi [4][6][11].

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar va xalqaro tahlillar hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish zarurati institutsional islohotlar, infratuzilma rivoji, rag‘batlar samaradorligi va yashil transformatsiya talablari bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi [5][7][12][13]. Ushbu xulosalar mazkur tadqiqotda hududlar kesimida differensial va natijaga yo‘naltirilgan investitsiya siyosati mexanizmlarini asoslash uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot konseptual-siyosiy tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Birinchi bosqichda investitsiya muhitini baholash bo‘yicha xalqaro mezonlar, jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining investitsion siyosat mezonlari hamda BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasining barqaror rivojlanish uchun investitsiya siyosati asoslari tizimlashtirildi. Mazkur yondashuv investitsion siyosatni 1–2 ta indikator asosida emas, balki ko‘p yo‘nalishli mezonlar majmuasi orqali baholashni nazarda tutadi. Ushbu mezonlar qatoriga raqobat siyosati, soliq va bojxona ma‘murchiligi, infratuzilma, moliya bozorlariga kirish imkoniyati, korporativ boshqaruv, bozor ochiqqligi hamda davlat boshqaruvi sifati kabi omillar kiradi.

Ikkinchi bosqichda O‘zbekiston Respublikasining investitsiya-huquqiy bazasi va institutsional arxitekturasini ochiq manbalar asosida tahlil qilindi. Xususan, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun hamda investitsiya muhitiga oid rasmiy ma‘lumotlar ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv investitsiya siyosatini faqat normativ-huquqiy hujjatlar darajasida emas, balki ularning amaliy ijro mexanizmlari bilan uyg‘un holda talqin qilish imkonini beradi [4].

Uchinchi bosqichda O‘zbekiston bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning mamlakat tahlillari asosida tematik “tahlil bloklari” shakllantirildi. Bunda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2025-yilgi “Barqaror investitsiya siyosati islohotlari” yo‘l xaritasi, Jahon bankining investor ishonchi bo‘yicha tahlillari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining o‘tish davriga oid baholari, Xalqaro valyuta fondi hisobotlari hamda Osiyo taraqqiyot bankining mamlakatlar hamkorligi strategiyasi va boshqa manbalar tahlil qilindi. Mazkur tahlil bloklari hududlar kesimida investitsiya siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash uchun foydalanildi [5].

Tadqiqot natijalari sifatida “Hududiy investitsiya siyosati matritsasi” taklif etiladi. Ushbu matritsa hududlarni investitsion salohiyatiga ko‘ra guruhlash va har bir guruh uchun mos instrumentlar to‘plamini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yashil investitsiyalarni hududiy investitsiya siyosatiga integratsiya qilish bo‘yicha mexanizm xaritasi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish zarurati: beshta asosiy dalil

Birinchi dalil: hududlararo tafovutlar va “investitsiyaning markazlashuvi”.

Investitsiya oqimlari odatda bozor hajmi katta, logistika qulay va institutlar samarali faoliyat yuritayotgan hududlarda jamlanadi. Bu tabiiy jarayon bo‘lsa-da, davlat siyosati tomonidan muvozanatlashtirilmasa, ortda qolgan hududlarda bandlik va daromadlar o‘sishi sustlashadi. IHTT ISM yondashuvida ham investitsiya muhitini yaxshilash faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish bilan cheklanmay, balki investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish bilan bog‘lanadi [6].

Ikkinchi dalil: investor ishonchi va prognoz qilinadigan muhit.

Jahon bankining investor ishonchi bo‘yicha tahlillari shuni ko‘rsatadiki, investorlar uchun asosiy signal tartibga solishdagi aniqlik, ma‘murchilik xarajatlarining pastligi va shaffoflik hisoblanadi. Hududlarda ruxsatnomalar, yer ajratish, tarmoqlarga ulanish (elektr, gaz, suv), qurilish hamda bojxona jarayonlari yagona standart asosida ishlamasa, markaziy darajadagi islohotlar ham amaliyotda to‘liq samara bermaydi [7].

Uchinchi dalil: infratuzilma cheklovlari va biznes xarajatlari.

Energiya, suv, transport va raqamli infratuzilma sifati hududiy investitsiya jozibadorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Jahon banki tahlillarida infratuzilmani modernizatsiya qilish, shuningdek, energiya narxlarini islohotlariga o‘tish jarayonlari xususiy investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega ekani qayd etiladi. Shu bois investitsiya siyosatini infratuzilma siyosatisiz takomillashtirish “yarim siyosat” bo‘lib qoladi [8].



To'rtinchi dalil: rag'batlar samaradorligi va maqsadlilik muammosi.

Imtiyoz va preferensiyalar investorlarni jalb etishi mumkin, biroq institutlar zaif bo'lgan sharoitda ular uzoq muddatli barqaror natija bermaydi. IHTTning O'zbekiston bo'yicha yo'l xaritasida ham soliq rag'batlari dizayni, ularning maqsadlilik va boshqaruv shaffofligi alohida ustuvor yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Rag'batlar o'lchanadigan natijalar bilan bog'lanmasa, ular samarali siyosiy instrumentdan ko'ra budget xarajatiga aylanish xavfi yuqori bo'ladi.

Beshinchi dalil: yashil o'tish va investitsiya siyosatining yangi talablari.

BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasining 2024-yilgi Jahon investitsiya hisobotida investitsiya jarayonlarini soddalashtirish, raqamlashtirish va "yagona oyna" mexanizmlarini joriy etish milliy siyosatlarda asosiy trendga aylangani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, barqaror moliya bozorining kengayishi va "yashil yuvish" (greenwashing) risklarining mavjudligi investitsiya siyosatini yanada puxta dizayn qilish zarurati keltirib chiqarmoqda. Hududiy darajada yashil loyihalar portfelini shakllantirish, standartlar va moliyalashtirish instrumentlarini moslashtirish investitsiya siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

2. Ustuvor yo'nalishlar bo'yicha hududiy investitsiya siyosatining "blok modeli"

Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari yettita funksional blok asosida tizimlashtiriladi.

Blok A. Institutsional muhit va tartib-taomillarni soddalashtirish.

Hududiy darajada investorlar uchun eng muammoli yo'nalish amaliy ma'murchilik hisoblanadi. Shu sababli yer ajratish, qurilish ruxsatnomalari, tarmoqlarga ulanish, sanitariya-epidemiologik va ekologik ekspertiza, bojxona-logistika hamda inspeksiya tekshiruvlaridagi noaniqliklarni minimallashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. IHTT ISM yondashuvida ham investitsiya muhitini yaxshilash boshqaruv sifati, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va shaffoflik bilan bevosita bog'lanadi. Hududlarda xizmat ko'rsatish muddati va javobgarligi tamoyilini joriy etish, jarayonlarni raqamli iz orqali monitoring qilish hamda "jim qolsa – rozilik" mexanizmlarini bosqichma-bosqich tatbiq etish investorlarning tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.

Blok B. Investitsiya rag'batlarini qayta dizayn qilish: maqsadli, shartli va vaqtli yondashuv.

Rag'batlar hududiy siyosatda inkor etilmaydi, biroq ularning dizayni universal imtiyozlardan maqsadli shartnomaviy mexanizmlarga o'tishi lozim. IHTTning O'zbekiston bo'yicha tahlillarida ham soliq rag'batlarining dizayni, berish mezonlari va shaffofligi muhim ahamiyatga ega ekani qayd etiladi. Rag'batlarni yangi ish o'rinlari sifati, energiya samaradorligi, eksport va mahalliyashtirish darajasi hamda texnologiya transferi bilan bog'lash tavsiya etiladi [9]. "Sunset clause" va "clawback" mexanizmlarining joriy etilishi budget risklarini kamaytirib, rag'batlarni iqtisodiy instrument sifatida mustahkamlaydi.

Blok C. Infratuzilma va davlat-xususiy sheriklik: investitsiya siyosatining tayanch omili.

Hududiy investitsiya jozibadorligi ko'p jihatdan infratuzilma sifati bilan belgilanadi. Elektr ta'minoti uzluksizligi, logistika xarajatlari, suv resurslari va raqamli tarmoqlar samaradorligi biznes xarajatlarini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Jahon banki va YTTB tahlillarida infratuzilmani modernizatsiya qilish va DXSH mexanizmlarini rivojlantirish xususiy investitsiyalarni jalb etishda muhim ekanligi ta'kidlanadi [10].

Blok D. Investitsiya targ'iboti va imtiyozlari: marketingdan servisga o'tish.

Zamonaviy amaliyotda xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentliklari faoliyati reklama bilan cheklanmay, investorlar uchun kompleks servis ko'rsatishga yo'naltirilmoqda. YTTBning O'zbekiston bo'yicha yo'l xaritasida investor xizmatlarini raqamlashtirish, mavjud investorlarni saqlab qolish va loyiha yo'l xaritalarini sifatli tayyorlash ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatiladi [11].

Blok E. Davlat ishtiroki, xususiylashtirish va raqobat muhiti.

Xususiy investitsiya oqimlari ko'p jihatdan bozor signallariga bog'liq. Davlat korxonalari ustun bo'lgan tarmoqlarda raqobatning cheklanishi investorlar uchun to'siq bo'lib qoladi. Shu sababli xususiylashtirish, raqobat siyosatini kuchaytirish va davlat ishtirokini kamaytirish hududiy investitsiya siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

Blok F. Yashil investitsiyalar: qulay muhit va loyihalar portfeli.

Yashil o'tish sharoitida investitsiya siyosati energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish va suv tejovchi texnologiyalar bo'yicha loyihalar portfelini shakllantirishni talab etadi. 2024-yilgi Jahon investitsiya hisobotida yashil moliya bozori kengayayotgani bilan birga, sifat nazorati va monitoring zarurligi ta'kidlanadi.

Blok G. Inson kapitali va innovatsiya: investor uchun "yumshoq infratuzilma".

Hududiy investitsiya jozibadorligi faqat jismoniy infratuzilma bilan belgilanmaydi. Malakali kadrlar, kasbiy ta'lim tizimi hamda ilm-fan va biznes hamkorligi investorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Osiyo taraqqiyot bankining 2024–2028-yillarga mo'ljallangan mamlakatlar hamkorligi strategiyasida inson kapitali va institutsional islohotlar O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan [12].



3. “Hududiy investitsiya siyosati matritsasi”: differensial paket yondashuvi

Hududlarni investitsion salohiyatiga ko'ra guruhlash va har bir guruh uchun mos instrumentlar paketini shakllantirish amaliy siyosat dizayni uchun taklif etiladi.

1-jadval. Hududlarni salohiyatiga ko'ra guruhlash va instrumentlar paketi

Hudud guruhi	Asosiy cheklov	Ustuvor instrumentlar	O'lganadigan natija
I-guruh: yuqori salohiyat	Sifat va murakkablik yetishmasligi	Innovatsion va eksport loyihalari, yashil standartlar, qo'llab-quvvatlash	Eksport ulushi, yuqori unumdor ish o'rinlari
II-guruh: o'rta salohiyat	Infratuzilma va servis bo'shliqlari	DXSH, tezkor xizmatlar, maqsadli rag'batlar	Loyihalarning barqarorligi, investitsiya o'sishi
III-guruh: past salohiyat	Bazaviy infratuzilma va institutlar	Tayanch infratuzilma, yer va tarmoqlarga ulanishni soddalashtirish, kadrlar	Biznes subyektlari soni, bandlik, jon boshiga investitsiya

Bu matritsaning mantiqi IHTT ISM va BMTSTKBRIS yondashuvlarida ilgari surilgan “qulay muhit” hamda “siyosat izchilligi” tamoyillariga mos keladi. Mazkur yondashuv har bir hududda investitsion rivojlanishni cheklayotgan eng zaif bo'g'inni aniqlash va resurslarni aynan shu yo'nalishga maqsadli ravishda yo'naltirish zarurligini nazarda tutadi. Shuningdek, IHTTning O'zbekiston bo'yicha ishlab chiqilgan yo'l xaritasida ham investitsiya siyosati doirasidagi islohotlar tizimli va o'zaro muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlanadi.

1. “Ko'p imtiyoz” va “institutsional sifat” o'rtasidagi nisbat

Amaliy tadqiqotlarda hududiy investitsiya siyosatida investitsiya rag'batlaridan keng foydalanish holatlari kuzatiladi, chunki ular qisqa muddatda investitsiya qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq xalqaro tahlillar rag'batlarning samaradorligi ularning dizayni, maqsadliliigi va institutsional muhit sifati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. IHTTning O'zbekiston bo'yicha tahlillarida ham investitsiya rag'batlari institutsional cheklovlar mavjud sharoitda barqaror natija bermasligi qayd etiladi. Jahon bankining investor xulq-atvoriga oid tadqiqotlari esa investitsiya qarorlarida tartibga solish sifati va prognoz qilinishi asosiy omillar qatoriga kirishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, hududiy investitsiya siyosatida institutlar sifati, infratuzilma ta'minoti va investorlar uchun xizmatlar tizimi o'zaro uyg'un holda ko'rib chiqilishi zarur. Rag'batlar esa maqsadli, shartli va vaqt bilan cheklangan qo'shimcha instrument sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

2. Hududlararo investitsiya taqsimoti va tranzaksiya xarajatlari

Investitsiya oqimlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi ko'p jihatdan tranzaksiya xarajatlari darajasi bilan belgilanadi. Yer ajratish, tarmoqlarga ulanish, ruxsatnomalar, logistika va kadrlar bilan bog'liq xarajatlar past bo'lgan hududlar investorlarga nisbatan jozibaliroq hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda investitsiyalarni hududlar bo'yicha muvozanatlashtirishning eng samarali yo'li aynan ushbu xarajatlarni kamaytirish ekani ta'kidlanadi. Jahon investitsiya hisoboti – 2024 natijalari ham investitsiya jarayonlarini soddalashtirish va tranzaksiya xarajatlarni qisqartirish investitsiya oqimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

3. Yashil investitsiyalar va hududiy raqobat omillari

Yashil o'tish sharoitida hududiy investitsiya jozibadorligi energiya samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik standartlarga moslik kabi omillar bilan tobora ko'proq bog'lanmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining tahlillarida yashil energetika va energiya samaradorligi loyihalari uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va eksport salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Shu sababli hududiy investitsiya siyosatida yashil loyihalar portfelini shakllantirish hamda ularni moliyalashtirish instrumentlari, jumladan yashil obligatsiyalar va aralash moliya mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha institutsional imkoniyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Xususiy investitsiyalar va bozor mexanizmlari

Xalqaro moliyaviy institutlar tahlillarida investitsiya faolligi ko'p jihatdan raqobat muhiti, bozorga kirish shartlari va iqtisodiy subyektlar uchun teng imkoniyatlarning mavjudligi bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Ayrim tarmoqlarda davlat ishtirokining yuqori darajada bo'lishi xususiy investitsiyalar faolligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli hududiy investitsiya siyosatida raqobat muhitini rivojlantirish, bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlash va shaffof tartib-taomillarni qo'llash investitsiya muhitini yaxshilashning muhim shartlari sifatida qaraladi [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqola doirasida hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish zarurati besh asosiy omil orqali asoslandi: hududlararo tafovutlarni qisqartirish ehtiyoji, investor ishonchining ahamiyati, infratuzilma cheklovlarining



mavjudligi, investitsiya rag'batlari samaradorligini oshirish zarurati hamda yashil o'tish sharoitida yuzaga kelayotgan yangi talablarni hisobga olish masalalari. Olingan natijalar hududiy siyosatda yagona yondashuvdan ko'ra hududlarning salohiyati va cheklovlarini inobatga oluvchi differensial instrumentlar majmuasidan foydalanish samaraliroq ekanini ko'rsatadi. Bunda har bir hudud uchun investitsion rivojlanishni cheklayotgan asosiy omillar aniqlanib, tegishli siyosat instrumentlari ushbu omillarni yumshatishga yo'naltiriladi.

Tahlil natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy yo'nalishlar ustuvor deb baholanadi:

1. Hududlar kesimida investorlar bilan ishlashda xizmat ko'rsatish standartlarini aniqlashtirish, jumladan yer ajratish, tarmoqlarga ulanish va ruxsatnomalar jarayonlarida muddat va javobgarlik mexanizmlarini belgilash.

2. Investitsiya rag'batlari tizimini shartli, maqsadli va vaqt jihatidan cheklangan shaklda takomillashtirish hamda ularni o'lchanadigan natijalar (KPI) bilan bog'lash.

3. Infratuzilma va davlat-xususiy sheriklik loyihalari portfelini rivojlantirish, loyiha tayyorlash instituti, moliyaviy jihatdan barqaror (bankable) standartlar va ochiq tender mexanizmlaridan foydalanish.

4. Investorlarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish, jumladan keyingi muloqot mexanizmlari, murojaatlar bilan ishlash tizimi va raqamli "yagona oyna" vositalarini takomillashtirish.

5. Hududlar darajasida yashil investitsiyalar portfelini shakllantirish, energiya samaradorligi, suv va chiqindilarni boshqarish loyihalarini monitoring va standartlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish.

6. Xususiy sektor faoliyati uchun raqobat muhitini yaxshilash, davlat ishtiroki darajasini baholash va bozor signallarining ishlashiga ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish.

7. Hududiy inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash tashabbuslari, kasbiy ta'lim va biznes hamkorligi mexanizmlarini kengaytirish.

Mazkur yo'nalishlar IHTT ISM, BMTSTKBRIS hamda O'zbekiston bo'yicha mavjud xalqaro tahlillar bilan metodologik jihatdan uyg'un bo'lib, hududiy investitsion siyosatning institutsional, barqaror va natijaga yo'naltirilgan modelini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaynalov, J. R., Aliyeva, S. S., & Ruzibayeva, N. X. (2020). Investitsiya. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
2. Haydarov, O'. A. (2022). Investitsiya. Toshkent: Yangi nashr nashriyoti.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2021). Implementation handbook for quality infrastructure investment. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/investment/infrastructure/quality-infrastructure-investment/>
4. O'zbekiston Respublikasi. (2019-yil 25-dekabr). Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida (O'RQ-598-son). <https://lex.uz/docs/4674328>
5. United Nations Conference on Trade and Development. (2015). Investment policy framework for sustainable development (2015 ed.). UNCTAD. <https://unctad.org/publication/investment-policy-framework-sustainable-development-2015>
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2025-yil 26-noyabr). Roadmap for sustainable investment policy reforms in Uzbekistan. OECD. <https://www.oecd.org/investment/uzbekistan-investment-policy-reforms/>
7. United Nations Conference on Trade and Development. (2024). World investment report 2024: Investment facilitation and digital government solutions. UNCTAD. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024>
8. World Bank Group. (2020). Global investment competitiveness report 2019/2020: Rebuilding investor confidence in times of uncertainty. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-investment-competitiveness-report>
9. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). Transition report 2023–2024: Uzbekistan (Country assessment). EBRD. <https://www.ebrd.com/transition-report-2023-24.html>
10. International Monetary Fund. (2024). Republic of Uzbekistan: Article IV consultation. IMF. <https://www.imf.org/en/Countries/UZB>
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (n.d.). Vazifalar va funksiyalar. <https://gov.uz/oz/investmiit/pages/vazifalar-va-funksiyalar>
12. Asian Development Bank. (2024). Uzbekistan country partnership strategy, 2024–2028. ADB. <https://www.adb.org/documents/uzbekistan-country-partnership-strategy-2024-2028>
13. International Finance Corporation. (2023). Sustainable growth and inclusion in Central Asia: Uzbekistan portfolio overview. IFC. https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/region_ext_content/ifc_external_corporate_site/central+asia

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100